

**ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI URGANCH DAVLAT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.12.2019. Fil. 55.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI
URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI**

XUDAYAROVA DILNOZA SHAVKATOVNA

KOMIL XORAZMIY SHE'RIYATINING JANRLARI POETIKASI

10.00.02 – O'zbek adabiyoti

**Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Urganch – 2025

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Oglavlениye avtoreferata dissertatsii doktora filosofii (PhD)
po filologicheskim naukam**

**Contents of Dissertation Abstract of Doctor of Philosophy (PhD) on
Philological Sciences**

Xudayarova Dilnoza Shavkatovna Komil Xorazmiy she‘riyati janrlarining poetikasi	3
Худаярова Дилноза Шавкатовна Поэтика жанров поэзии Камила Хорезми.....	27
Khudayarova Dilnoza Shavkatovna The poetics of genres in Komil Khoreshzmi’s poetry.....	53
E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati Список опубликованных работ List of published works.....	57

**ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI URGANCH DAVLAT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.12.2019. Fil. 55.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI
URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI**

XUDAYAROVA DILNOZA SHAVKATOVNA

KOMIL XORAZMIY SHE'RIYATINING JANRLARI POETIKASI

10.00.02 – O'zbek adabiyoti

**Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Urganch – 2025

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.2.PhD/Fil4815 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universitetida bajarilgan.
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume) Ilmiy kengash veb-sahifasida (fil-ik.urdu.uz) va "Ziyonet" axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Jabborov Nurboy Abdulhakimovich
filologiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Boltayeva Gulchehra Shokirovna
filologiya fanlari doktori, professor,

Saidjonova Zebo Komilovna
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Qarshi davlat universiteti


Dissertatsiya himoyasi Urganch davlat universiteti huzuridagi ilmiy daraja beruvchi PhD.03/30.12.2019.Fil.55.02 Ilmiy kengashning 2025-yil « 30 » dekabr soat 11:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 220100, Urganch shahri, H.Olimjon ko'chasi, 14-uy. Tel: (99862) 224-67-00; faks: (99862) 224-67-00; e-mail: fil-ik.urdu.uz.


Dissertatsiya bilan Urganch davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (Q-902 raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 220100, Urganch shahri, H.Olimjon ko'chasi, 14-uy. Tel.: (99862) 224-67-00).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil « 16 » dekabr da tarqatildi.
(2025-yil « 16 » dekabr dagi 68 raqamli reestr bayonnomasi)




O.O. Cho'ponov
Ilmiy daraja beruvchi Ilmiy kengash raisi
ambosari, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent


S.S. Atajanov
Ilmiy daraja beruvchi Ilmiy kengash ilmiy kotibi, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent


A.D. O'razboyev
Ilmiy daraja beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, filologiya fanlari doktori (DSc), professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon adabiyotshunosligida she'riy janrlarning kanonik xususiyatlari, tadrijiy takomili va transformatsiyasi masalalari mutaxassislar diqqat markazida bo'lib kelyapti. Chunki lirik tur va janrlar, milliy mansubligidan qat'i nazar, ijodkor shaxs va millat ruhiyatini ifoda etishi nuqtayi nazaridan barcha xalqlar adabiyotida alohida ahamiyatga ega. She'riy janr va shakllar, bundan tashqari, muayyan xalq badiiy tafakkuri takomilining turli davrlarga oid xususiyatlarini o'zida mujassam etishi bilan ham xarakterlidir.

Dunyo adabiyoti nainki ijodkor ruhiy-hissiy va falsafiy-ma'rifiy olami, shuning bilan birga, bashariyat kechmishi, taraqqiyot va tanazzul jarayonlarining epik va lirik talqini turli janrlarda aks etgani jihatidan ham adabiy-ilmiiy yo'nalishlardagi tadqiqotlar uchun manba bo'lib xizmat qilmoqda. Sharq va G'arb adabiyotidagi mumtoz hamda zamonaviy she'riy janrlar poetik xossalariga ko'ra bir-biridan farq qiladi. Lekin inson ruhiy kechinmalarini, olam va odam munosabatlarini aks ettirishiga ko'ra ma'lum darajada mushtarak xususiyatlarga ham ega. Bu esa, o'z navbatida, poetik janr, shakl va uslubning muhim adabiy-estetik vazifa bajarishiga dalil bo'la oladi.

O'zbek adabiyoti bir-biridan farqli xususiyatlarga ega, she'riy janr va shakllar borasida o'ziga xos ijodiy kashfiyotlari bo'lgan Xorazm, Qo'qon, Toshkent, Buxoro va Samarqand singari hududlarda shakllangan adabiy muhitlarga ega ekani bilan jahon estetik tafakkurida alohida o'rin tutadi. "O'zbek mumtoz va zamonaviy adabiyotini xalqaro miqyosda o'rganish, bugungi kunda dunyo adabiy makonida yuz berayotgan eng muhim jarayonlar bilan uzviy bog'liq holda tahlil etib, zarur ilmiy-amaliy xulosalar chiqarish, kelgusi vazifalarimizni belgilab olish katta ahamiyatga ega"¹ ekani mutaxassislar oldiga mazkur adabiy muhitlarning o'ziga xosligini belgilash, alohida ijodkorlar adabiy merosi misolida zamon talablari darajasidagi tadqiqotlarni amalga oshirish kabi aniq vazifalarni qo'yadi. XIX asr Xorazm adabiy muhitining yorqin namoyandasi shoir, tarjimon, davlat arbobi va xattot Komil Xorazmiy she'riyatining poetik va janriy xossalarini belgilash, millat badiiy tafakkuri rivojida tutgan o'rnini asoslash adabiyotshunoslik oldidagi muhim vazifalardandir. Shoirning she'riy janrlar takomili borasidagi badiiy kashfiyotlari, g'azal, qasida, musammat, mustazod, masnaviy va kichik poetik janrlarni shakl va mazmun jihatdan boyitgani hamda shu orqali milliy estetik tafakkur yuksalishiga qo'shgan hissasini mumtoz poetika mezonlari asosida baholash zarurati ushbu dissertatsiyada qo'yilgan ilmiy muammoning dolzarb ekanini tasdiqlaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-oktabrdagi PF-6097-son "Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida", 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108-son "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida

¹Мирзиёев Ш. Адабиёт, санъат ва маданият яшаса, миллат ва халқ, бутун инсоният безавол яшайди. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.Мирзиёевнинг "Ўзбек мумтоз ва замонавий адабиётини халқро микёсда ўрганиш ва тарғиб қилишнинг долзарб масалалари" мавзусидаги халқро конференция иштирокчиларига йўллаган табриги. www.xabar.uz. 07.08.2018.

ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmonlari, 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-son "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2017-yil 24-maydagi PQ-2995-son "Qadimiy yozma manbalarni saqlash, tadqiq va targ'ib qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2020-yil 19-oktabrdagi PQ-4865-son "Buyuk shoir va mutafakkir Alisher Navoiy tavalludining 580 yilligini keng nishonlash to'g'risida", 2023-yil 25-yanvardagi PQ-20-son "Buyuk shoir va olim, mashhur davlat arbobi Zahiriddin Muhammad Bobur tavalludining 540 yilligini keng nishonlash to'g'risida"gi qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 16-fevraldagi 124-F-son "O'zbek mumtoz va zamonaviy adabiyotini xalqaro miqyosda o'rganish va targ'ib qilishning dolzarb masalalari" mavzusidagi xalqaro konferensiyani o'tkazish to'g'risida"gi farmoyishi hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu tadqiqot muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Xiva xonligi Rusiya imperiyasining vassaliga aylantirilgan 1873-yildan boshlab rus olimlari tadqiqotlarida Komil xususida fikr yuritilganligi kuzatiladi. Sankt-Peterburgda chop etilgan "1873-yilgi Xiva yurishi" sarlavhali ruscha rasmiy manbada, F.I.Lobosevichning o'sha yil voqealariga daxldor "1873-yilgi Xiva yurishining bayoni" ("Описание Хивинского похода 1873 г.") nomli kitobida u haqida ma'lumotlar bor. Mak-Gaxanning ingliz tilidan tarjima qilinib, 1875-yilda Moskvada chop etilgan "Военные действия на Оксусе и падение Хивы" ("Oksusdagi harbiy harakatlar va Xivaning taslim bo'lishi") kitobida ham Komil faoliyatiga maxsus to'xtalangan. "Turkiston viloyatining gazetasi" muharriri N.Ostroumovning u haqidagi qaydlari XIX asrning 80–90-yillarida bitilgan.

XIX asrda yaratilgan Ogahiyning "Gulshani davlat", Muhammad Yusuf Bayoniyning "Shajarayi Xorazmshohiy", Ahmad Tabibiyning "Majmuatu-sh-shuaro" kabi asarlarida Komilning otashzabon shoir va tadbirkor davlat arbobi sifatidagi faoliyati yuksak baholangan.

Sho'ro davrida Komil she'riy merosi dastlab 1945-yili O.Sharafiddinovning "O'zbek adabiyoti tarixi" xrestomatiyasi, oradan ikki yil o'tgach "O'zbek poeziyasi antologiyasi" orqali tanishtirilgan. 50-yillardan boshlab Komil hayoti va ijodi maktab va oliy o'quv yurtlari dastur va darsliklaridan o'rin olgan. Jumladan, G'. Karimovning oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlari uchun tuzgan darsliklarida Komil hayoti va ijodiga alohida o'rin ajratildi. 1980-yili bosilib chiqqan "O'zbek adabiyoti tarixi" besh jildligining so'nggi 5-jildidagi "Muhammadniyoz Komil" deb ataluvchi maxsus tadqiqot A. Hayitmetov qalamiga mansub. Bundan tashqari, olim Komil hayoti va ijodining turli qirralariga doir bir necha maqolalar e'lon qilgan. Bugunga qadar Komil Xorazmiy hayoti va ijodiy merosi u yoki bu darajada

tadqiq etilgan ilmiy maqolalar², to‘plamlar³ hamda monografiyalar, dissertatsiyalar yaratildi, respublika va xalqaro miqyosda anjumanlar⁴ o‘tkazildi. Shoir lirikasining alohida nashrlari amalga oshirildi⁵.

Dissertatsiyaning davlat dasturlari yoki ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Mazkur tadqiqot Urganch davlat universitetining “O‘zbek adabiyotshunosligining dolzarb muammolari” mavzuidagi ilmiy tadqiqot ishlari rejasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi. Komil Xorazmiy ijodida lirik janrlarning tutgan o‘rni, asosiy xususiyatlari, yangilanishi va badiiy takomili qonuniyatlarini ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

Komil she‘riyatining janriy xossalarini aniqlash, lirik asarlarning mavzuiy tasnifini amalga oshirish;

shoir g‘azallarining kanonik xususiyatlarini, ushbu janrni shakl va mazmun jihatdan yangilashdagi xizmatlarini ochiqlash;

ijodkor qasidalarining poetik tuzilishini tekshirish hamda qasidanavislik mahoratini baholash;

Komil musammatlarida badiiy shakl va mazmun munosabatini mumtoz poetika mezonlari asosida belgilash;

² Юнусов М. Комил. // Шарқ юлдузи. – 1956. – №11. – Б. 89-102; Мажидий Р. Комил Хоразмий. //Ўзбек тили ва адабиёти масалалари. – 1961. – №2. – Б. 23-27; Мўминова В. Комил Хоразмий – таржимон. //Ўзбек тили ва адабиёти масалалари. – 1962. – №1. – Б. 75-77; Каримов Ғ. Эзгу ниятлар куйчиси. // Шарқ юлдузи. – 1976. – №1. – Б. 218-223; Ҳайитметов А. Илғор ғоялар куйчиси //Совет Ўзбекистони. 1976 йил 8 июль; Эркинов С. Комил камолоти //Ўзбекистон маданияти. 1976 йил 20 август; Қаюмов А. Адиб ва арбоб //Ўзбекистон маданияти. 1976 йил 31 август; Қобулов Н. Тараққийпарвар шоир /Ўзбекистон маданияти. 1976 йил 27 август; Зоҳидов В. Баркамол адиб /Ўзбекистон маданияти. 1976 йил 3 сентябрь; Мўминова В. Таржимон. /Ўзбекистон маданияти. 1976 йил 3 сентябрь; Раҳматова Д., Мусамухамедова Ф. Жаҳолатга ёв бўлиб /Ўзбекистон маданияти. 1976 йил 3 сентябрь; Мусамухамедова Ф. Буюк салафлар издоши /Совет Ўзбекистони. 1976 йил 5 сентябрь; Ҳожиева Р. Комил Хоразмий – хаттот ва шоир // Адабий мерос. – 1978. – №11. – Б. 61-63; Абдуғафуров А. Комил Тошкентда //Ўзбек тили ва адабиёти. – 1983. – №1. – Б. 10-16; Ахмедов А. Комил – зуллисонайн шоир // Адабий мерос. – 1983. – №2. – Б. 80-85; Ҳомидий Ҳ. Комил Хоразмийнинг Тошкент мадҳияси //Тошкент оқшоми. 1983 йил 23-май; Хўжаева У. Муҳаммаднийёз Комил девонининг Тошкент нухсалари //Адабий мерос. – 1998. – №3-4. – Б. 43-45; Қобулов Ф. Комил ижодида сатира // Адабий мерос. – 1988. – №1. – Б. 59-63; Комил ҳақида яна бир янги маълумот // Адабий мерос. – 1991. –№2.–Б.61-63. Юсупов Ш. Комил ҳақида янги маълумот //Шарқ юлдузи. – 1988. – №7. – Б. 165-168.

³ Ўзбек адабиёти тарихи хрестоматияси. Икки томлик. II том. Тузувчи О.Шарафуддинов. – Тошкент: Ўздавнашр, 1945. – Б. 411-416; Ўзбек шеърятини антологияси. Беш томлик. III том. Тузувчилар: О.Шарафуддинов, А.Қаюмов, Р.Мажидий. – Тошкент: Ўздавнашр, 1961. – Б. 265-278; Ўзбек поэзиясининг антологияси. – Тошкент: Ўздавнашр, 1948. – Б. 190-191; Ўзбек адабиёти. Тўплам. Тўрт томлик. III том. – Тошкент: Бадий адабиёт, 1959. – Б. 782-800.

⁴ Юнусов М. Комил Хоразмий. – Тошкент: Бадий адабиёт нашриёти, 1960; Каримов Ғ. Комил Хоразмий / Ўзбек адабиёти тарихи. 3-китоб. – Тошкент: Ўқитувчи, 1966. – Б. 227-256; Ҳайитметов А. Муҳаммаднийёз Комил / Ўзбек адабиёти тарихи. V томлик. Бешинчи том. – Тошкент: Фан, 1980. – Б. 65-96; Айёмий (Юнус Юсупов). Комил Хоразмий / Ўт чакнаган сатрлар. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1983. – Б. 87-113. Nuriddinov Sh. Komil Xorazmiy devoni manbalari genealogiyasi va matn tanqidi muammosi. Filol. fanlari doktori... dissertatsiyasi. – Qarshi, 2022. – B.257. “Komil Xorazmiy ijodiy merosining o‘zbek adabiyoti taraqqiyotidagi o‘rni” mavzusida o‘tkazilgan ilmiy-amaliy anjuman materiallari.2020-yil, 19-noyabr. – B.148. Komil Xorazmiy tavalludining 200 yilligi, Muhammad Rahimxon Feruz tavalludining 180 yilligiga bag‘ishlab o‘tkazilgan “Filologiya va san’atshunoslikning dolzarb masalalari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari. – Urganch, 2025. – B.448.

⁵ Мажидий Р. Комил Хоразмий (Сўзбоши). “Танланган шеърлар”. – Тошкент: Ўзадабийнашр, 1961. – Б. 52. Комил. Девон. Нашрга тайёрловчилар: А.Ҳайитметов, В.Мўминова. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1975.– Б. 224; Комил Хоразмий. Musammatlar. Nashrga tayyorlovchi Sh. Nuriddinov.Qarshi: “ILM-FAN-MA’NAVIYAT” nashriyoti, 2024.

shoir masnaviylari poetikasini syujet va kompozitsiya, ijodiy niyat va estetik ideal nuqtayi nazaridan ochib berish;

ijodkor lirikasidagi mustazod va kichik janrlarning badiiy xususiyatlarini oydinlashtirish.

Tadqiqot obyekt. Komil Xorazmiyning 1961-yilda chop etilgan “Tanlangan asarlar”i, 1975-yili nashrdan chiqqan “Devon”i, 2024-yili chop qilingan “Musammatlar” to‘plami, Tabibiy va Laffasiy tazkiralari kirgan she’rlari hamda devonining 1880, 1895-yillarda Xivada, 1910-yilda Toshkentda chop etilgan toshbosma nusxalari dissertatsiya uchun obyekt sifatida tanlandi.

Tadqiqot predmeti. Komil Xorazmiy she’riyatining janr xususiyatlari va mavzu ko‘lami, g‘azal, qasida va musammatlari badiiyati, shoirning masnaviy va mustazodlari poetikasi hamda ruboiy va muammo singari kichik janrlardagi mahorati masalalari ilmiy ishning predmetini tashkil qiladi.

Tadqiqot usullari. Tadqiqot jarayonida tarixiy-qiyosiy, biografik, struktural va statistik tahlil usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi.

Komil Xorazmiy she’riyatining janriy xossalari belgilanib, mumtoz adabiyotning o‘n uch janrida ijod qilgani, g‘azal, qasida, masnaviy, musammat, mustazod, muammo, ta’rix va ruboiy kabi janrlarning kanonik xususiyatlarini saqlagan holda poetik mazmun va shaklni yangilagani dalillangan;

ijodkor lirik merosining mavzu doirasi adabiy-estetik mezonlar asosida ishqiy, ijtimoiy va ma’rifiy she’rlar tarzida tasniflanib, nazmiy asarlarida mumtoz adabiy an’analar bilan bir qatorda yangicha ma’rifatparvarlik g‘oyalari badiiy sintez qilingani isbotlangan;

shoir g‘azalni shakliy jihatdan yangilagani, jumladan, aksar g‘azallarini matla’dan maqta’gacha takrir, talmeh, savol-u javob kabi yagona san’at asosiga qurgani, ayniqsa, kitobat san’atining nodir namunasi yaratgani, bu orqali hayot falsafasini badiiy kashfiyot darajasida ifodalagani ochib berilgan;

Komil Xorazmiyning qasida, masnaviy, musammat va mustazodlari hamda kichik janrlardagi she’rlarida lafziy, ma’naviy va mushtarak san’atlar mahorat bilan qo‘llangani, qasidalarida davrning ijtimoiy muammolari ham aks etgani, “So‘yla manga, ey sanam, kimni sevar yorisan?” ifodasi Komildan keyin Xorazm adabiy muhitida turkum she’rlar yaratilishiga ijodiy ta’sir ko‘rsatgani asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Komil Xorazmiy g‘azaliyotga shakliy yangiliklar olib kirgani, bir g‘azalni matla’dan maqta’gacha kitobat, takrir va talmeh san’atlari asosida yaratgani misolida uning novator shoir ekani dalillangan;

shoir qasidalarining yangicha poetik tuzilishga ega ekani, ular faqat madh ruhida bo‘lmay, ijtimoiy muammolarni ham aks ettirgani, she’rlarida badiiy san’atlarning har uch turi – lafziy, ma’naviy va mushtarak san’atlar teran -ishqiy-lirik va falsafiy-ma’rifiy mazmuni ifodalagani asoslangan;

ijodkorning musammat janrini poetik shakl va mazmun jihatdan yangilagani, lirik asar tilini xalq ruhiyatiga yaqinlashtirgani, shoir muxammasidagi “So‘yla manga, ey sanam, kimni sevar yorisan?” ifodasi Komildan keyin Xorazm adabiy muhitida yangi an’anani yuzaga keltirgani isbotlangan;

Komil Xorazmiy mustazodlari poetik mazmun va uslub jihatdan mumtoz she'riyat an'alarini yangilagani, muammo, ta'rix va ruboiy kabi kichik janrlardagi she'rlari katta ahamiyatga ega falsafiy mohiyatni ifodalagani aniqlangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi muammoning nazariy aspektda qo'yilgani, chiqarilgan xulosalarning tarixiy-qiyosiy, biografik va struktural usullar vositasida asoslangani, nazariy qarashlarni dalillashda ilmiy manbalarga tayanilgani, xulosalar tarixiy-qiyosiy usulni qo'llash orqali chiqarilgani, ishonchli manbalar hamda adabiyotshunoslikka doir lug'atlardan foydalanilgani, ilmiy yangiliklarning amaliyotga tatbiq etilgani, natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlangani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Dissertatsiya natijalarining ilmiy ahamiyati Komil Xorazmiy she'riyatining janr xususiyatlari, badiiyati aniqlangani, shoirning badiiy mahorat qirralari tadqiq etilgani bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati dissertatsiya xulosalari va tavsiyalaridan oliy ta'lim muassasalari va umumta'lim maktablari uchun o'zbek adabiyoti tarixi, milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyoti, adabiyotshunoslik nazariyasi, mumtoz poetika asoslari bo'yicha ma'ruza va amaliy mashg'ulotlarda, mavzuga oid darslik, qo'llanma va risolalar yaratishda foydalanilishi mumkinligida ko'rinadi. Shuningdek, ushbu dissertatsiya materiallaridan ta'limning turli bosqichlarida, xususan, oliy o'quv yurtlarining filologiya fakultetlarida maxsus kurs yoki seminar mashg'ulotlarini o'tkazishda, umumiy o'rta ta'lim hamda ixtisoslashtirilgan maktablar adabiyot darslarida istifoda etilishi dars sifati va samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Dissertatsiyadagi Komil Xorazmiy she'riyatining janriy xossalari belgilanib, mumtoz adabiyotning o'n uch janrida ijod qilgani, g'azal, qasida, masnaviy, musammat, mustazod, muammo, ta'rix va ruboiy kabi janrlarning kanonik xususiyatlarini saqlagan holda poetik mazmun va shaklni yangilagani dalillangani; ijodkor lirik merosining mavzu doirasi adabiy-estetik mezonlar asosida ishqiy, ijtimoiy va ma'rifiy she'rlar tarzida tasniflanib, nazmiy asarlarida mumtoz adabiy an'alar bilan bir qatorda yangicha ma'rifatparvarlik g'oyalari badiiy sintez qilingani isbotlangani bilan bog'liq xulosalardan Qo'qon davlat pedagogika institutida Davlat ilmiy-texnika dasturi doirasida amalga oshirilgan AL-322103020 raqamli "Qo'qon adabiy muhiti ijodkorlari hayoti va ijodi bo'yicha veb-sayt va elektron platforma yaratish" amaliy loyihasini bajarishda foydalanilgan (Qo'qon universitetining 2025-yil 12-apreldagi 01-03\55-sonli ma'lumotnomasi). Natijada veb-sayt va elektron platforma yangi nazariy ma'lumotlar bilan boyitilgan.

shoir g'azalni shakliy jihatdan yangilagani, jumladan, aksar g'azallarini matla'dan maqta'gacha takrir, talmeh, savol-u javob kabi yagona san'at asosiga qurgani, ayniqsa, kitobat san'atining nodir namunasi yaratgani, bu orqali hayot falsafasini badiiy kashfiyot darajasida ifodalagani ochib berilganiga doir xulosalardan O'zbekiston Fanlar akademiyasi Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy-tadqiqot instituti tomonidan amalga oshirilgan FA-A1-G007 raqamli "Qoraqalpoq

naql va maqollari lingvistik tadqiqot obyekti sifatida” amaliy loyihasini bajarishda foydalanilgan. (O‘zbekiston Fanlar akademiyasi Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy-tadqiqot institutining 2025-yil 14-apreldagi 59/1-sonli ma’lumotnomasi). Natijada mazkur loyiha yangi tahliliy qarashlar asosida takomillashtirilgan.

Komil Xorazmiyning qasida, masnaviy, musammat va mustazodlari hamda kichik janrlardagi she’rlarida lafziy, ma’naviy va mushtarak san’atlar mahorat bilan qo‘llangani, qasidalarida davrning ijtimoiy muammolari ham aks etgani, “So‘yla manga, ey sanam, kimni sevar yorisan?” ifodasi Komildan keyin Xorazm adabiy muhitida turkum she’rlar yaratilishiga ijodiy ta’sir ko‘rsatgani asoslanganiga oid ilmiy-nazariy xulosalardan “Xorazm” teleradiokanali DM tomonidan tayyorlangan “Adabiy muhit”, “Assalom, Xorazm” nomli dasturlarning ssenariylarini tayyorlashda foydalanilgan hamda mavzu tadqiqotchi bilan bevosita suhbat asosida yoritilgan (“Xorazm” teleradiokanali DMning 2025-yil 16-apreldagi 112-sonli ma’lumotnomasi). Natijada teleko‘rsatuvlar adabiy-ma’rifiy jihatdan yuqori saviyada bo‘lishi ta’minlangan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Ushbu tadqiqot natijalari 2 ta respublika va 3 ta xalqaro ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha 8 ta ilmiy maqola nashr etilgan. Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy natijalari chop etish tavsiya etilgan ilmiy jurnallarda 7 ta maqola, jumladan, 5 tasi respublika, 2 tasi xorijiy ilmiy jurnallarda nashr qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Tadqiqot kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan tashkil topgan bo‘lib, umumiy hajmi 149 sahifadan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, o‘rganilganlik darajasi yoritilgan, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obyekti va predmeti tavsiflangan, O‘zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan. Tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi, aprobatsiyasi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning “**Shoir lirikasining janr xususiyatlari va mavzu ko‘lami**” deb nomlangan birinchi bobi dastlabki fasli “**Ijodkor she’riyatining janriy xossalari**” tadqiqiga bag‘ishlangan. Komil Xorazmiy she’riyati, bastakorlik va musiqashunoslik faoliyati, yuksak badiiy saviyadagi tarjima asarlari bilan milliy estetik tafakkur takomiliga beqiyos hissa qo‘shdi. Mumtoz she’r nazariyasi bo‘yicha turkiy tildagi ilk asar – “Funun ul-balog‘a” muallifi Shayx Ahmad ibn Xudoydod Taroziyning yozishicha: “...majmui shuaro istilohinda she’rning aqsomi, ulkim mo‘tabardur, o‘n nav’ kelibtur: qasida, g‘azal, qit‘a, ruboiy, masnaviy, tarji’, musammat, mustazod, mutavval, fard”⁶. Olim “janr” atamasi

⁶ Шайх Аҳмад ибн Худойдод Тарозий. Фунуну-л-балоға. –Тошкент:”Хазина”, 1996. – Б. 32.

oʻrnida “nav” istilohini qoʻllaydi. Komil Xorazmiy ijodida sheʼrning ana shu oʻn navʼidan yettitasi – qasida, gʻazal, ruboiy, masnaviy, musammat, mustazod va mutavvalning yuksak namunalari mavjud. Musammatning murabbaʼ, muxammas, musaddas, musabbaʼ va musamman singari besh shakli borligi shoir ijodiy salohiyati isbotidir. Muammo va taʼrixni ham qoʻshsa, shoir 13 lirik janrda ijod qilgan. Ularda ishqiy-irfoniy va ijtimoiy-maʼrifiy gʻoyalar, hayot falsafasi mukammal badiiyat bilan ifodalangan.

Komilning hozircha 206 ta gʻazali maʼlum boʻlib, uning bu janr takomilidagi oʻrni alohida. Shoir salaflar ijodidan taʼsirlanibgina qolmay, novatorlik mahoratini ham koʻrsata bildi. U Navoiy, Fuzuliy, Munis, Ogahiy kabi shoirlar gʻazallariga naziralar bitdi. Gʻazaliyotni oʻzi yashagan davr ijtimoiy voqeligi hamda yangicha maʼrifatparvarlik gʻoyalari talqini bilan boyitdi. Muhammad Rahimxon Feruz haqidagi: “...ulamoni koʻp doʻst tutar erdilar va sheʼriyati gʻarroning irtivojiga saʼy etar erdilar va bagʻoyat raiyatparvar va shafqatgustar va odil-u fozil kishi erdilar...”⁷ degan taʼrifdagi “sheʼriyati gʻarroning irtivojiga saʼy etar erdilar” taʼkidida bu davr Xorazm adabiy muhitining muhim xususiyati ifodalangan.

Shoir devoni “Paydo” radifli gʻazal bilan ochiladi:

Zihi husnung guligʻa yoʻq bahor-u ibtido paydo,

Ham ermas bu bahoringgʻa xazon-u intiho paydo. (*Izoh. Bundan keyingi*

sheʼriy parchalar quyidagi manbalardan olinib, iqtibos olingan sahifa shartli qisqartma bilan qavs ichida koʻrsatib oʻtiladi:

1. Komil. *Tanlangan sheʼrlar*. – Toshkent: Davlat badiiy adabiyot nashriyoti, 1961. (TSh).

2. Komil. *Devon*. – Toshkent: Gʻafur Gʻulom nomidagi Adabiyot va sanʼat nashriyoti, 1975. (KD).

3. Komil Xorazmiy. *Musammatlar*. – Qarshi: *Ilm-fan, maʼnaviyat nashriyoti*, 2024. (M).

4. *Adabiyotshunos Shahobiddin Nuriddinov nashrga tayyorlagan, hali chop etilmagan Komil Xorazmiyning devoni*. (ShN).

Aslida, ushbu sheʼr Alisher Navoiyning “Gʻaroyib us-sigʻar” devoni 2-gʻazaliga tatabbuʼ sifatida bitilgan. Buyuk shoir gʻazalining matlaʼi mana bunday:

Zihi husnung zuhuridin tushub har kinga bir savdo,

Bu savdolar bila kavnayn bozorida yuz gʻavgʻo.

Aslida, “...biror sheʼrning uslubi (vazni, radifi, qofiyalari va baʼzi xarakterli sanʼatlari)ni saqlagan holda unga javob qilmoq”⁸qa asoslangan tatabbuʼ, birinchidan, Komilning gʻazaldagi falsafiy-irfoniy mazmundan poetik shaklgacha, badiiy sanʼatdan ifoda usuligacha salaflaridan oʻrganib, tajriba orttirgani, ikkinchidan, ularni takrorlamagani, yangilik yaratgani isbotidir. Navoiy matlaʼsida asosiy urgʻu “Kuchli ehtiros, berilish; ishq, shaydolik”⁹ maʼnolarini anglatuvchi “savdo” tushunchasiga qaratilgan. Buyuk shoir Tangri taolo husni zuhuri barchaning qalbiga ishq savdosini solgani, bu savdolar ikki dunyo bozorida yuz gʻavgʻo qoʻzgʻagani haqida yozadi. Komil gʻazalining boshlanma bayti gul, bahor, xazon, ibtido va intiho tushunchalari orqali Haq taolo maʼrifati oʻziga xos talqin etilgani va yangilikka intilganidan dalolat beradi.

⁷ Баёний, Мухаммад Юсуф. Шажараи хоразмшоҳий (Нашрга тайёрловчилар: Н.Жумахўжа, И.Адизова). – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1994. -Б. 97.

⁸ Исҳоқов Ё. Сўз санъати сўзлиги. – Тошкент: “Oʻzbekiston”, 2014. – Б.224.

⁹ Навоий асарлари луғати. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1972. – Б.537.

Shoir gʻazal janrini shaklan yangilarah. Mumtoz sheʻriyatda kitobat sanʻati gʻazalning bir-ikki bayti doirasida qoʻllangan, xolos. Muayyan gʻazal boshdan-oxir ushbu sanʻatga asoslanishi holati kuzatilmaydi. Komil Xorazmiyming:

“Ayn”-u “shin”-u “qof”inga to boʻldi koʻnglum muhtalo,

“Dol”-u “ro”-u “dol”-u hajringdin dame erman judo –

deb boshlanuvchi gʻazali ayni sanʻat zaminiga qurigan bilan alohida ajralib turadi. Gʻazalda kitobat sanʻati butunlay yangi usulda qoʻllangan. Yaʼni poetik mazmun soʻzlar orqali emas, ularni tashkil etuvchi harflar vositasida ifodalangan. Dastlabki baytda “ishq”, “dard” soʻzlari orqali sheʻriyatimiz asosi boʻlgan tushunchalar talqin etilgan boʻlsa, keyingisida Majnun va Layli obrazlari orqali kitobat sanʻatiga uygʻun ravishda talmeh imkoniyatlaridan ham foydalanilgan. Gʻazalning maqtaʼida esa shoir taxallusi – “Komil” hamda oshiqona mazmuni taʼsirli aks ettirgan “qon” va “rahm” soʻzlari yakuniy xulosaning ohorli talqin etilishini taʼminlagan. “Xiva adabiy muhiti namoyandalari asarlaridagi yondosh adabiy maktablar vakillari ijodiyotidan alohida ajralib turadigan badiiy kashfiyotlar poetik shakl yangilanishida, ayniqsa, yaqqol kuzatiladi, – deb yozadi Nurboy Jabborov. – Sheʼrni matlaʼdan maqtaʼgacha yagona badiiy sanʻat asosiga qurish – faqat mazkur adabiy muhit ijodkorlari asarlaridagina kuzatiladigan usul. Komil Xorazmiyning boshdan-oxir kitobat sanʻati asosiga qurilgan gʻazali mazkur usulning nodir namunasi¹⁰. Haqiqatan, ushbu badiiy usul Xorazm adabiy muhiti ijodkorlarigagina xos. Yana bir ahamiyatli jihati, ushbu usulga koʻra gʻazal yaxlit ravishda muayyan bir sanʻat asosiga qurilsa-da, har bir baytda boshqa bir qancha sanʻatlar ham mahorat bilan qoʻllanib, badiiyatni yanada mukammallashtiradi.

Komil lirikasi janrlari orasida musammatning oʻrni alohida. Shoirning “Oʻtub koʻb oy-u yillar, soʻrmading holi parishonim” va “Falak bedodidin maskan manga koʻyi mazallatdur” misralari bilan boshlanuvchi ikki murabbaʼsi bor. Ular “Funun ul-balogʻa”dagi talablardan qofiya tizimi oʻziga xosligi hamda uchinchi misralar sajʼ asosiga qurilmasligi bilan farq qiladi. Buning sabablarini, birinchidan, oradan oʻtgan toʻrt asr mobaynida murabbaʼ shaklida oʻzgarishlar boʻlgani, ikkinchidan, Xorazm adabiy muhitida yangilikka intilish kuchli ekani bilan izohlash mumkin.

Ijodkor jami 36 ta muxammas bitgani maʼlum. Ulardan 8 tasi Ogahiy, 6 tasi Navoiy, 4 tasi Feruz, 3 tasi Rojiy, 2 tasi Munis, 2 tasi Xoja va bittadan Amiriy, Bedil, Nishotiy, Gʻoziy gʻazallariga bogʻlangan. Shoirning ushbu janrdagi sheʼrlarining umumiy bir xususiyati shundaki, ularning 8 tasida tarjeʼ bayt, 1 musaddasda tarjeʼ misra qoʻllangan. Anʼanalar doirasidan chiqib, yangicha uslubdan foydalangani shoir ijodiy izlanishlarining estetik ahamiyatini oshirgan. Disseratsiyada shoirning musabbaʼ, masnaviy va ruboiylari ham tahlil etilgan.

Bahri tavil – kamyob uchraydigan janr. Adabiyotimiz tarixida Ogahiy, Komil Xorazmiy va Tabibiy kabi sanoqli ijodkorlarga bu janrda mahoratini koʻrsatgan. Arabcha “uzun bahr” soʻzidan olingan ushbu janr sheʼrdan koʻra sajli nasrga yaqinroq turishi bilan alohida ajralib turadi. “Bahri tavil” ayrim manbalarda

¹⁰ Jabborov N. Ijodiy tafakkur takomilining Xiva adabiy muhitiga xos mezonlari. / “Filologiya va sanʻatshunoslikning dolzarb masalalari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari. – Urganch, 2025. – B. 7.

“mutatavval” deb ham yuritiladi. Xususan, Shayx Ahmad Taroziy ushbu janrga mana bunday ta’rif beradi: “Mutatavval ul bo’lurkim, hech bir bahr sakkiz juzvdin ortuq bo’lmas. Shoir takalluf qilib, bu bahrlardan birisin ixtiyor etib, har misrani o’n juzv qilurlar. Yo yigirma juzv. Haddu hududi yuz juzv bo’lur. Andin ortuq bo’lsa, lutfi qolmas va muning salosati andadurkim, musajja’ bo’lsa”¹¹. Komilning ushbu janrdagi asari ana shu nazariy qoidalarga barcha tomondan mos keladi. Mana, shoir bahri tavilining boshlanishidan iqtibos: “Soqiyo, tut mango bir jom to’la bodayi gulfomki, aylab oni oshom, bo’lub mast mudom, aylayin ahvolimi i’lomki, man xastayi nokomg’a bir sarvi gulandom, ikki nargis bodom g’ami ishq i tushub subh bilan shom, oning vasli xayolida urub gom, ne mandin yeturub bir kishi bir qatla payom, onga, ne ondin mang’a payg’om, o’tub hasrat-u olom bila bir necha ayyom, banogoh yo’l uzra ul kabki xirom uchrasa, ko’rgoch oni qolmay dil-u jonimda, dame sabr ila orom, bera olmayin ul damda salom-u o’tub ul moh tamom-u, ko’zi g’oratgari islom, necha noz-u karashma bila sallonavu mastona xirom aylar edi” (ShN).

Ushbu parchadagi ritmik bo’laklar *gulfom, oshom, mudom i’lom, nokom, gulandom, bodom, shom, gom, payom, payg’om, olom, ayyom, xirom, orom, salom, tamom, islom, xirom* so’zlari saj’ hosil qilib, ohangdorlikni ta’minlagan. “Odatda she’rning bir misrasi 4 rukndan iborat bo’ladi, ammo bahri tavilda bir misra 6 tadan 94 tagacha rukndan tarkib topishi mumkin. Bahri tavil vaznida yozilgan she’rlarda misralardagi ruknlar soni bir xil bo’lishi shart emas”¹². Komilning bahri tavilida ham misralardagi ruknlar soni o’zaro uyg’un emas. Jumladan, birinchi misra o’n uch, ikkinchi misra uch va uchinchi misra olti ruknni tashkil etgani buning isbotidir.

Komil ijodining janrlar ko’lami mumtoz she’riyat takomiliga munosib hissa qo’shganidan dalolat beradi.

Ushbu bobning ikkinchi faslida **“Lirik asarlarning mavzuiy tasnifi”** amalga oshirilgan. Komil she’rlarini mavzu jihatdan ishqiy, ijtimoiy va ma’rifiy kabi turlarga bo’lish mumkin. Shoir she’riyati asosini ishqiy lirika tashkil etadi. Uning bu turdagi she’rlarida yor obrazi ravon va xalqchil uslubda, o’ziga xos tasvirlanadi. Uningcha, oy yuzli dilbar husn-u jamol bog’ining gulidir. Bu gulga qarata: “Dahr aro yo’qtur senga oshiqi zor o’lmag’on, La’li labing shahdig’a bormu xumor o’lmag’on?” (KD, 194), - deya his-tuyg’ularni ta’sirli ifodalaydi. Shoir g’azallarida oshiq qalbining dard-u iztiroblari mahorat bilan talqin etiladi.

Komil ijodida ijtimoiy muhit va davr tasviri, jamiyatdagi adolatsizlikni, zulm-zo’ravonlikni qoralash tendensiyalari ham yetakchilik qiladi. Ijtimoiy g’oyalar ikki xil: 1) ushbu mavzuning maxsus talqini hamda 2) ayrim baytlarda ijtimoiy mazmun ifodalanishi tarzida talqin etilgan. Xorazm adabiy muhiti shoirlaridan Munis, Ogahiy, Komil, Feruz va Avaz ijodida ijtimoiy mazmun salmoqli o’rin egallaydi. Komilning “Fuzalo”, “Juhalo”, “Har soat”, “Tama”, “Iyd o’ldi” kabi g’azallarida adolatsizlik va tubanlik tanqid qilinadi. Jumladan, “Fuzalo” va “Juhalo” radifli g’azallarida real muhit obyekt qilinib, jamiyatdagi adolatsizlik,

¹¹ Шайх Аҳмад ибн Худойдод Тарозий. Фунуну-л-балоға. –Тошкент: “Ҳазина”, 1996. – Б. 58.

¹² Тоиров У. Фарҳанги истилоҳоти арузи Ажам. –Душанбе: Маориф, 1991. –Б.384.

johillar – hokim va amaldorlar bilan fozillar – shoir, olim va ziyolilar hayoti kontrast asosida tasvirlanadi. Komilning fazl ahli haqidagi ushbu gʻazali oʻz shaxsiy hayotidan olingan va bevosita boshdan kechirgan hayotiy xulosalar mahsulidir. Millat kelajagi va taqdirini oʻylaydigan fuzalo shoir yashagan zamonasida doim “kulfat oʻqiga nishon” va johillar gʻolib ekanidan qaygʻuradi:

Juhalo zumrasi kelib gʻolib,

Boʻldi magʻlub-u notavon fuzalo (TSh, 10).

Gʻazalning ruhi va mazmuniga singdirilgan reallik, xuddi shoirning ayanchli taqdiri, tarjimai holidek tasavvur beradi. Shuning uchun shoir fozillar ahvolini bir oʻrinda “Topmas oʻlturgʻali makon fuzalo”, deya ifodalasa, yana bir oʻrinda “Topmadilar yemakka non fuzalo”, deya anduh chekadi.

“Juhalo” radifli gʻazalida Komil ijtimoiy muhit shakllantirgan johillarning kirdikori va nuqsonlarini fosh etadi. Gʻazal boshdan oxir shu mavzuga qaratilgan. Komil fuzalo va shuaro boshiga tushgan baxtsizlik va falokatlarning ildizi juhalo sababli ekanini taʼsirli taqin qiladi:

Ulamogʻa berib ijroi shariatda shikast,

Berdilar johili nodongʻa himoyat juhalo (TSh, 10).

Johillarning hukumatda oʻz royicha ish qilishi jamiyatning izdan chiqishiga sabab boʻladi. Lirik qahramonning adolatsizlikka qarshi tutumi va juhaloga bahosi asosiga qurilgani gʻazalning ijtimoiy-badiiy qimmatini belgilaydi.

Komil ijtimoiy lirikada turli poetik usullardan unumli foydalandi. Shoir sof lirik gʻazalda ham oʻrni bilan ijtimoiy mavzuni sintez qilgani kuzatiladi. Lirik chekinishga asoslangan bu kabi baytlar gʻazalning umumiy mazmuniga mahorat bilan bogʻlanadi. Shoirning “Qilmading” radifli gʻazali lirik qahramoni – oshiq. Oshiq maʼshuqa ruxsori gulafshon qilmaganidan, raqibga boqib, unga nigoh tashlamaganidan, vaslidin benasib etganidan shikoyat qiladi. 13 baytdan tashkil topgan gʻazal xonumoni hijronda qaro boʻlgan oshiqning iztiroblari tasviriga bagʻshlangan. Maʼshuqa – jafokor. U doim oshiqni hajrida qiynaydi. Shoir matlaʼdan to 12-baytgacha maʼshuqani ayblaydi. 12-baytga kelib lirik qahramon his-tuygʻulari asnosida muallifning mavjud ijtimoiy muhitga munosabati aks etadi:

Donish ahliga qayu qilmishlaring dey, ey falak,

Qay birin ul zumraning magʻlubi nodon qilmading (TSh, 14).

Komil lirik qahramoni oʻrtanishiga sababchi maʼshuqa emas, “falak” deb biladi. Falak va lirik qahramon oʻrtasida ziddiyat bor. Falak – qilmishi shafqatsiz, maʼshuqaning beqaror-u bevafofiga ham, donish ahlining magʻlubi nodon boʻlishiga ham u sababchi. Shuning ushuni uning yovuzliklarini fosh etiladi.

“Shuaro” radifli gʻazali maqtaʼsida shoir soʻz durlarini gavhardek sochgani uchun shoh huzurida qadri baland boʻlganidan faxrlanadi:

Emdi soch soʻz duri Komil sadafi tabʼingdin,

Tobti shoh hazratida qadr ila himmat shuaro (TSh, 10).

Munis sheʼriyatiga tatabbuʼ sifatida bitilgan mazkur gʻazalda ijodkor oʻz hayoti misolida takrorlanmas, badiiy yuksak gʻoyalarni talqin etgan. Donish ahlining ijtimoiy-maʼnaviy qiyofasini tasvirlar ekan, tazod (shoh - gado) va istiora

(tiyri malomat) singari san'atlar vositasida shuaroning shoh-u gado huzurida haq so'zni aytgani uchun malomat o'qiga nishon ekanidan taassufini bildiradi:

Haq so'zni shoh-u gado qoshida kitmon etmas,
Bu jihatdan hadafi tiyri malomat shuaro (TSh, 9).

Komil yangicha ma'rifatparvarlik yo'nalishida beqiyos asarlar yaratdi. Jumladan, "Kamol" radifli g'azalida insonning bi dunyodagi kamoloti mulk-u mol bilan emas, ilm-u hunar bilan belgilanishi haqidagi ma'rifiy qarashlarini ohorli mazmun va go'zal badiiyat uyg'unligida ifodalaydi:

Emas kishiga bu dunyoda mulk-u mol kamol,
Husuli ilm-u hunar keldi bezavol kamol.

O'limdin sharafi oxirat emas yolg'uz -

Ki, munda ham sababi izzat-u jalol kamol (TSh, 8).

Shoir kamolot oxiratda sharaf keltirishi barobarida dunyo izzatining ham sababi ekanini ta'kidlar ekan, "Ilm – dunyoning izzati va oxiratning sharafi" mazmunidagi hadisga ishora qiladi. Bu esa, o'z navbatida, Komil ijodida ma'rifat targ'ibi asosiy o'rinda turishidan dalolat beradi.

Komil o'z she'riyatida nimani qalamga olgan bo'lsa, o'sha narsaga o'zi ham amal qilgan. Ilm-ma'rifat haqida yozgan bo'lsa, amalda ham buni isbotini ko'rsatgan. Ma'lumki, "Ikki sho'x" radifli g'azali shoirning N.Ostroumov xonadonidagi mehmondorchilikdan olgan taassurotining mahsuli. Musiqaga oshno bo'lgan Komil N. Ostroumovning ikki qizi ijro etgan bal raqslarini tomosha qilishi va rus qo'shiqlarini fortepiano jo'rligida eshitishi natijasida mislsiz yangi bir manzarani tasvirlovchi "Ikki sho'x" radifli g'azalini yozadi.

Komil ijodida falak, zamon, vaqt, yil, soat tushunchalariga yangicha yondashuv asosida dunyoning tub mohiyatini, uning holatini ochib berishga harakat qiladi. "Shohi falak"dan lutf kutayotgan shoir shunday yozadi:

Bo'lur har soatim bir kun, kunim yuz yil, yilim ming oy,
Menga lutf etmasa, shohi falak miqdor har soat (KD, 35).

Shoir jamiyat hodisalariga faol munosabat bildirdi. Yurt kelajagi va taqdiri uchun qayg'urdi. Millat ma'naviyati va ijtimoiy ongni yuksaltiruvchi she'riyati orqali xalqqa xizmat qildi.

Dissertatsiyaning "**G'azal, qasida va musammat poetikasi**" sarlavhali ikkinchi bobi birinchi faslida "**Shoir g'azal va qasidalar poetik tuzilishi hamda badiiyati**" tahlil etilgan. Komil she'riyatida g'azalning tuzulishiga ko'ra parokanda, yakpora va voqeaband turlari uchraydi. G'azalning ushbu turlari ijodkordan katta mahorat talab qilishi ayon. Parokanda g'azallar bir mavzu doirasida bo'lmasa ham, g'azalning o'ziga xos ichki imkoniyatlarini kengaytirishi tasdiqlangan. Ba'zan shoir sof lirik g'azallarda davrning ijtimoiy muammolari-yu adolatsizliklarini ifodalashi mumkin bo'ladi. Parokanda g'azallar ayni imkoniyatni yuzaga chiqarishda shoirga asqotadi. Komilning mashhur "Bir soat" radifli g'azalida turli mavzular ifodalanadi. Dastlabki baytlarda sifatlovhi-sifatlanmish (gumbazi davvor), istiora (g'am xirmani) kabi badiiy san'atlar vositasida zulm-u g'am girdobidagi oshiq, yillar o'tsa ham vasl payg'omi kelmaydigan ma'shuqa

hamda yor majlisidan biror soat ayrilmaydigan ag‘yor obrazlari betakror talqin etilgan:

Menga zulmni kam etmas gunbazi davvor bir soat,
To‘kar g‘am xirmanin boshimg‘a yuz xarvor bir soat.
Ne ul oydin kelur yillar aro bir vasl payg‘omi,
Ne oning majlisidin ayrilur ag‘yor bir soat (KD, 35).

Shoir tazod san‘ati vositasida kontrast tasvir usulidan san‘atkorona foydalanadi. Bir xizmati evaziga yuz tuhmatga uchraydi. Unga asal o‘rniga zahar, gul o‘rniga tikan sohadilar. Kinga oshnolik aylasa, begonavash bo‘lib, yamonlik sog‘inadi. Nodon do‘stlar bois chekkan iztirobini ijodkor mana bunday ifoda etadi:

Yetar afg‘onki nodon do‘stlarning ixtilotidin,
Ko‘ngul oyinasiga yuz tumon zangor bir soat (KD, 35).

Keyingi baytda soqiyga xitob qilinib, lirik qahramonning zamondan jafu-u alam ko‘rgani, ko‘ngil osoyishtaligini istashi talqin etiladi. Haq jamoliga erishish yo‘lida “masti mudom” qahramon ruhiy halovat izlaydi:

Jahon past-u balandi, so‘qiyo, ko‘nglumni qon qildi,
Meni masti mudom et, qo‘ymag‘il hushyor bir soat (KD, 35).

So‘nggi baytlarda shoirning axloqiy-falsafiy qarashlari aks etgan. Ilohiy ishq sharobidan mast bo‘lgan lirik qahramon shohi jahondin o‘zgasidin tama’ qilmaydi:

Hamisha uz tama’ shohi jahondin o‘zgin Komil
Desang bo‘lmay jahon ichra zalil-u xor bir soat (KD, 35).

G‘azalda 4 xil mavzu talqin etilgan. Ular orasida mantiqiy izchillik bo‘lmasa ham, lirik qahramonning ichki ruhiy holati kompozitsion butunlikni ta‘minlagan.

Komil g‘azaliyotining salmoqli qismini yakpora g‘azallar tashkil qiladi. Ular bu turdagi g‘azal talablariga to‘liq mos keladi. “Fuzalo”, “Juhalo” “Ta‘ma” “Po‘stin”, “So‘zung” radifli g‘azallari shu turkumga mansubdir. “Iyd o‘ldi olam ahlig‘a...” g‘azali voqeaband ekani bilan ajralib turadi. G‘azalda Iyd tasviri orqali jamiyatdagi tengsizlikning real manzarasi tasvirlanadi.

Iyd o‘ldi olam ahlig‘a, yuzlandi ibtihaj,
Shahi torak muborakidin qadr topti toj (KD, 45).

Adabiyotshunos Nurboy Jabborov Alisher Navoiy haqida: “O‘zi mansub bo‘lgan ulug‘ elga mehr qo‘yish, el-ulus baxtini o‘z baxti, g‘amini o‘z g‘ami deb bilish shaxs kamolotining muhim shartlaridandir”¹³, deb yozgan edi. Bu fikni Komil Xorazmiy hayoti va ijodida ham tatbiq etish mumkin. Shoir o‘zini barcha xalqdan past-u kichik tutishni tavsiya etadi. Kalondimog‘lik va manmanlikni ulug‘ ofat deb biladi: *Tut o‘zni past-u kichik barcha xalqdin, Komil, Azim ofat erur nixvat-u anoniyat (TSh, 9)*. Bu esa shoirning xalqni sevishi va o‘zidan baland tutishi isbotidir.

Shoir gazallarida mazmun va badiiy san‘at uyg‘un ifodalanadi. “Oltun, kumushga javohirni o‘rnatmoq” ma‘nosidagi tarsi’ aksar matla‘da kelishi e‘tiborga olinsa, mana bu baytda lirik kechinma soz‘ durlari orqali ifodalangani ayon bo‘ladi:

Ko‘zim giryonliqig‘a → ul labi xandon bois,

¹³ Жабборов Н. Маоний аҳлининг соҳибқирони. – Тошкент: Adabiyot, 2021. – Б. 54.

Ko'ngul mahzunliqig'a → kulfati hijron bois.

Bayt tarsi' san'ati asosiga qurilgan. Unga tashbih (labi xandon) va tazod (xandon - mahzun) san'atlari ham qo'shilib, badiiyatni yanada mukammallashtirgan. Har ikki misraning avvalida oshiqning holati berilib, ikkunchi qismida buning sababi izohlangani poetik mazmunning ta'sir kuchini oshirgan.

Komil g'azallari takomilida til va uslubning ham ahamiyati katta. Shoirning bu boradagi salohiyati **tajnis** san'atidan foydalanishida yaqqolroq ko'rinadi:

Bo'lmasa **garduni** suflado'st **gar dun**, ey ko'ngul,

Nega dunni shod etar, dononi mahzun, ey ko'ngul (TSh, 4).

Baytda tajnisi murakkabning jinosi mafruq (ajratilgan tajnis) turi qo'llanilgan. Misralarda tajnis hosil qilgan "gardun" ("falak") hamda "gar dun" ("agar tuban") so'zlari sakldosh ekani barobarida ma'no jihatdan qarama-qarshidir. Ya'ni biri yuksaklikni, ikkinchisi esa pastlikni anglatadi. Ikkinchi misradagi "dun" va "dono", "shod" va "mahzun" so'zlari ham tazod hosil qilgan baytda ijtimoiy-falsafiy mazmun va badiiy shakl mukammal darajada sintez qilingani dalilidir.

"Shuaro" g'azalining uchinchi baytida jinosning arab alifbosi asosidagi yozuv uchun xos bo'lgan **tajnisi muharrif** turi san'atkorona qo'llangan:

Qilsalar har necha izhori sadoqat shab-u ro'z,

Ko'rar o'trusida har damda *sad ofat* shuaro (TSh, 9).

Tajnis tarkibidagi uzvlar arab alifbosida صدآفت shaklan yaqin yozilsa ham, bir nuqta ila farqlanuvchi f – ق/ف – q harflari ikki harf va alohida ma'no beradi.

Xullas, Komil g'azallari hayot falsafasini teran ifodalashi va yuksak badiiyati bilan ushbu janr rivojida alohida zarhal sahifani tashkil etadi.

Adabiyotshunos Shahobiddin Nuriddinov Komilning 6 ta qasidasi borligini, ulardan Muhammad Rahimxon soniyga bag'ishlangan 4 qasida devonning barcha qo'lyozma va toshbosma nusxalarida uchrashini aytadi. Ayyomiy, G'.Karimov, N.Qobulov va B.Qosimov shoirning Toshkent haqidagi qasidasiga fikr bildirgan. G'ulom Karimov "Dar bayoni ta'rifi va tavsifi Toshkent" asarini "Qasidayi Navro'z" deb ham yuritiladi, degan¹. Keyingi tadqiqotlar esa bu fikrning noto'g'ri ekanini ko'rsatdi. Matnshunos Shahobiddin Nuriddinov fikricha, "Qasidayi Navro'z" butunlay boshqa asar. U Muhammad Rahimxon soniyga bag'ishlangan.

Ushbu janr xususiyatlari haqida "Fununu-l-balog'a"da: "Qasidaning aqalli yigirma yetti bo'lur yo andin o'ksukrak va aksari muayyan ermas. Har necha qofiya dast bersa ayturlar. Va har ne maqsud bo'lsa bayong'a keltururlar"³, deyilgan. Abdurauf Fitratning "Adabiyot qoidalari" asaridagi ta'rif salafining fikrini boyitadi: "G'azal yo'sinida tuzulib, o'n ikki baytdan ortiq bo'lgan tizmalarga qasida deyiladi".⁴ G'azal kabi qofiyalanuvchi, hajmi chegaralanmagan, o'ziga xos kompozitsion qurilishga va vasf mazmuniga ega ushbu janr mamduh (amaldor, podshohning)ning adl-u-insofi, shijoati va saxovatini madh qilishga qaratiladi. Adabiyotimiz tarixida, shuningdek, falsafiy va ijtimoiy-axloqiy masalalarga bag'ishlangan qasidalar ham uchraydi.

¹ Karimov G'. O'zbek adabiyoti tarixi –Toshkent: "O'qituvchi", 1987. –B.179.

³ Boltaboyev H. Sharq mumtoz poetikasi. I kitob. –Toshkent, 2008. –B.116.

⁴ Fitrat. Adabiyot qoidalari. –Toshkent: "O'qituvchi", 1995. –B.50.

Komil XIX asr o‘zbek adabiyotini qasida janri bilan boyitdi. Uning qasidalari bu janrning talab va qoidalariga mos ravishda yozilgan noyob asarlardir. Qasidalar biz uchun shoir badiiy mahoratini ochib berish bilan bir qatorda, saroy muhiti, hukmdor shoh va shoir qiyofasini yorqin tasavvur qilish imkoniyatini beradi. Dissertatsiyada qasidalar batafsil tahlil etilgan.

Bobning ikkinchi fasli **“Musammatlarda poetik shakl va mazmun munosabati”** tahliliga bag‘ishlangan. Komil musammatlari shaklan ham, mazmunan ham mukammal. Musammatning boshqa shakllari orasida murabba’lari son jihatdan ozchilikni tashkil qilsa ham, teran irfoniy mazmuni, xalqchilligi, yuksak badiiyati bilan alohida ajralib turadi. “O‘tub ko‘b oy-u yillar so‘rmading holi parishonim” deb boshlanuvchi to‘qqiz banddan iborat murabba’ shular jumlasidandir. Birinchi band to‘liq qofiyadosh (a, a, a, a). Qofiya uchun so‘z tanlashda ham shoir mahorati yaqqol namoyon bo‘lgan. Qofiya tarkibida qo‘llanilgan egalik qo‘shimchasi lirik qahramon bilan ma’shuqa o‘rtasidagi o‘zaro ma’naviy-ruhiy yaqinlikni his qilish imkonini bergan:

O‘tub ko‘b oy-u yillar so‘rmading holi parishonim,
Itobing shiddatidin og‘zima yetmishdurur jonim.
Nedin bir demading yillarda, ey kamtar sanoxonim,
Chu Yusuf Misr izzat masnadida mohi Kan’onim (M, 7).

Nazmning bu turida ham shoir ishq va oshiqlik mavzusini talqin etar ekan, murabba’ning dastlabki bandida lirik qahramon ma’shuqaning bevafoolidan azob chekayotgani tasvirlanadi. Muallif oshiq ruhiyatidagi o‘zgarishlarni sodda va ravon tilda ifodalaydi. Har bir misrada oshiq va ma’shuqa holati parallel tasvirlanadi: ilk misrada oy-u yillar o‘tsa-da, xabar olmagan ma’shuqa va parishon oshiq; ikkinchi misrada shiddatli itob qilayotgan ma’shuqa va joni og‘ziga kelgan oshiq. Xuddi epik asarlardagi boshlanma (epilog) kabi davomi qanday bo‘ladi, degan fikrni uyg‘otadi.

Keyingi baytda esa tasvir ma’shuqa husniga qaratiladi: bahor kelib, jahon gullari gulshanda jamlansa ham, ma’shuqaga tenglasha olmaydi. Tansiq-us sifot, istiora, qaytarish san’atlari uslub badiiyatini ta’minlaydi, fikrning ta’sir quvvatini oshiradi: *Qadingdek yo‘q nihole, lablaringdek g‘unchayi xandon, Qadi sarvi xiromonim, labi gulbargi xandonim* (M, 7).

Komil muxammaslarida visol bazmi, may-u ma’shuqa ramzlari orqali ilohiy ishq betakror talqin qilinadi. “Qilmoq istab tun-u kun ul buti ag‘yor ila bazm” deb boshlanuvchi muxammasi bu jihatdan xarakterli. Muxammasda tasavvufiy qarashlar “ag‘yor”, “mayi gulgun”, “aysh-u tarab”, “boda”, “mast-u hamog‘ush”, “buti cholok”, “yaqochok” kabi tushunchalar vositasida ifodalanadi. Shoir “dildor ila bazm”dan, ya’ni visol bazmidan so‘z yuritadi. Muxammasda “ag‘yor ila”, “xunxor ila”, “gulzor ila”, “dildor ila”, “yor ila” bazm qilishi bular hammasi so‘fiyona. U bu tushunchalar zamirida ilohiy tuyg‘ular bazmiga, bu orqali ko‘ngulning poklanishiga ishora qiladi. Dissertatsiyada shoir muxammaslari misollar orqali mufassal tahlil etilgan.

Shoir musammatning musaddas shaklida ham betakror badiiyat namunalarini yaratdi. “Toki bir sho‘xg‘a men oshiqi diydor o‘ldum” deb boshlanuvchi musaddasi 9 band, 54 misradan iborat. Komilning ushbu musaddasi oshiqona

mavzuda. She’rda ishqning majozdan haqiqatga o’sish tadriji ak etgan. Musaddasning har bandida: *Rahm eting, do’stlarim, holima, ko‘b zor o‘ldum, Bir sihi sarvi sumanbarg‘a giriftor o‘ldum* (KD, 209) bayti takrorlanib keladi. Birinchi va ikkinchi bandlarda ishqiy kechinmalar, iztirob, yuz tuman anduhga duchor bo‘lgan oshiq holati ohorli tasvirlangan. Bir sho‘xga oshiqi beqaror bo‘lgan lirik qahramon holati shunday ifodalanadi:

“Yo” qoshi birla “alif” qomati “dol” etdi meni,
Nukta aytur chog‘i shirin so‘zi lol etdi meni.
Chunki bir oshiqi bechora xayol etdi meni,
Tarki mehr etdi-yu, mahrumi visol etdi meni.
Rahm eting do’stlarim, holima, ko‘b zor o‘ldum,
Bir sihi sarvi sumanbarg‘a giriftor o‘ldum (KD, 209).

Dastlabki misrada shoir kitobat san’atini mahorat bilan qo‘llaydi. Ma’shuqaning qoshi ى ga, qomati ا ga, oshiqning bu iztiroblardan qaddi د ga qiyoslanishi va arab alifbosida “ىاد” so‘zi keltirib chiqarilgani, shoir o‘z ma’shuqasining qosh-u qomatini “yod” qilish istagini ifodalagani kitobat san’atining shunchaki shakl uchun emas, mazmun bilan uyg‘un qo‘llanganini ko‘rsatadi.

Musaddasning uchinchi bandida bazm, may, lab istilohlari zamirida irfoniy ma’no ifodalagan. Bazm – oshiq-u darveshlar suhbat, may – muhabbat ramzi. “Bazm aro” o‘z ma’shuqasining qahr-u itob aylab, shirin so‘ziga talx javob berishi zamirida oshiq va ma’shuqa munosabatlari talqin etiladi. Ma’shuqa vasfiga bag‘ishlangan baytda oshiqning ma’shuqa “qahr-u itob”idan, “talx so‘zi”dan iztirobi, “lablari tekkan mayi nob”dan mast bo‘lib, bag‘ri kabob bo‘lgani izhor etiladi. Bu esa musaddasda yor sevgisi komil inson ishq bilan uyg‘un ifodalanganidan dalolat beradi.

Shoirning yagona musabba’si 7 band, 49 misradan iborat bo‘lib, a-a-a-a-a-b-b; v-v-v-v-v-b-b tarzida qofiyalangan. She’r mazmunan Qur’oni karim va hadisi sharifga tayanib yozilgan. Dastlabki bandda shoir tasavvufdagi “tark” tushunchasi mohiyatini badiiy ifodalagan. “Ishq va ma’rifat dengizida suzmagan kishining tarkdan bahs ochishga haqqi ham, ma’naviy huquqi ham yo‘q”¹⁴. Darhaqiqat, shoir ishq dostonin ko‘rmagan, husn gulistonida sayr etmagan kishining yuragidan tark holi joy olib, bir lahza bo‘lsa ham yuksaklikka ko‘tarilishni istaydi. Ishq ahlini ushbu maqomga chorlashdan maqsad, aslida, ruhiy erkinlikka erishmoqdir. Shoir har band so‘ngida takrorlanib kelgan “Bulbul ko‘tarurda oshyonin, Gul dediki, “xas kam-u jahon pok” misralarida ham tasavvufiy qarashlarini aks ettirgan.

Komil Xorazmiy musaddasda tasavvufdagi sabr va shukr maqomi bilan bog‘liq qarashlarini badiiy talqin etadi:

Bo‘l mehr-u vafo yo‘lida sobir,
Har nav’ jafu yetushsa shokir,
Ondin ne sifat ish o‘lsa sodir,
Zinhor malolat etma zohir.
Ko‘r bulbul-u gul ishini oxir.

¹⁴ Ҳаққул Иброҳим. Навоийга қайтиш. – Toshkent: “Tafakkur”, 2021. – Б.64.

Bulbul ko‘tarurda oshyonin,
Gul derki: “Xas kam-u jahon pok” (KD, 213).

Shoir irfoniy mazmun talqinida tazod (vafo-jafo), tanosub (bulbul, gul), tashxis (gulning “Xas kam-u jahon pok” deyishi) kabi badiiy san’atlardan mahorat bilan foydalanadi. Insonni sobir va shokir maqomida ko‘rmoq istaydi. Hayotda har qanday holatda malolat zohir etmaslikka chaqiradi.

Umuman, Komil musammatlari irfoniy mazmun va poetik shakl benihoya uyg‘un ekani, badiiy san’atlar, vazn va qofiya jihatdan mukammalligi bilan alohida ahamiyatga ega.

Dissertatsiyaning **“Masnaviy, mustazod va kichik janrlarning poetik xossalari”** xususidagi uchinchi bobi birinchi faslida **“Masnaviyda syujet va kompozitsiya poetikasi”** muammosi tahlilga tortilgan. Masnaviy janrida ijod qilish Komil uchun o‘z fukr-mulohazalarini kengroq ifodalash imkonini bergan. Shoir lirik merosida 8 ta masnaviy mavjud. Matnshunos Shahobiddin Nuriddinovning aniqlashicha, ularning eng kichigi 13 bayt bo‘lsa, eng kattasi 168 baytni tashkil qiladi. Shuningdek, shoir masnaviylariga xos xususiyatlardan biri ulardan oldin asarning yaratilish tarixi aks etgan izoh-sarlavha berilishi, deb ta’kidlab o‘tadi va quyidagi **ای کرم بیری** (ey karam bahrining) deb boshlangan masnaviy yaratilish tarixini esa muallif quyidagicha izohlaydi: “Amir-ul umaroning devonbegisi Muhammadniyoz devonbegi muhriga qozdurmoqg‘a bir saj’ darkor bo‘lub, faqirg‘a oytib yiboribdurkim, bir saj’ mashq yiborsa, muzdig‘a bir tanga berurmiz deb. Oning so‘zi javobida bu masnaviy bitilib erdi va yana Muhammadrizo mirob al-mulaqqabi bil-Ogahiykim, amiri mazkurg‘a xurufat g‘azal va qasidai g‘arro mashq qilib eltkonda jugan in‘om qilur erdilar. Ul dog‘i ushbu zakovatdin erdi” ushbu masnaviy shoirning “Tanlangan asarlar” to‘plamiga ham kiritilgan bolib, dastlabki 6 bayti qisqartirililgan. Nashr variantiga kirmagan baytlarida shoir Allohning go‘zal sifatleri, himmati, uning cheksiz karam sohibi ekanini madh etgan:

Ey karam bahrining durri g‘altoni,
V-ey saxovat javohiri koni.
Ey vafo durjining samin gavhari,
V-ey saxo bog‘i naxlining samari,
Ey guli gulistoni hilm-u hayo,
Oftobi sipehri bazl-u ato.
Ham kaloming erur guhar yanglig‘,
Ham jabining erur qamar yonglig‘.
Qadrdonlig‘ aro naziring yo‘q.
Bo‘lmag‘on dahr aro asiring yo‘q.
Himmating ollida jahon moli,
Bir ovuch tiyra xok tamosholi (TSh, 27).

So‘z – she‘r va shuaroning asosiy quroli. So‘zning hayotbaxsh qudrati doimo yuqori baholangan. Ammo Komil o‘z davrida so‘zga, so‘z ahliga munosabat borasida o‘z haqiqatlarini ayta olgan. So‘z gavharlarining jugancha qadri, qiymati yo‘qligidan afsuslangan:

Yo javohirshunos emasmu alar,

Tanimaslar jugan bila guhar.
Yo g'alat deb dururlar ahli sadaf,
Yo jugan bordurur guharga xalaf.
Yoki lafzi qadimda derlar
Jugan otini alar gavhar (TSh, 27).

Navoiy lirikasining Komil she'riyatiga ta'sirini ushbu masnaviyda ifoda etilgan estetik qarashlarida o'zaro uyg'unlashganini ko'rish mumkin. Hazrat Navoiy ta'rifida so'z "inson zoti ma'danining javohiri serobi durur" deya uqtirib, buni nazmda shunday ifodalaydi:

So'z guharig'a erur oncha sharaf,
Kim bo'la olmas anga gavhar sadaf (TSh, 27).

Komil ham Navoiyga hamohang tarzda so'zni gavharga, durga qiyoslaydi. Lekin o'z zamonasida durni juganga sotish fan bo'lganidan shikoyat qiladi.

So'zni guhar demishlar o'tkanlar,
Fazl do'konini yuritganlar,
Bu zamonda guhar jugan bo'lmish,
Durni sotmoq juganga fan bo'lmish (TSh, 27).

Shoir fikrlarini davom ettirar ekan, so'zni guhardin qimmatbaho sanaydi, nazmi purma'no zamondoshi Ogahiyini fazl-u donish sohibi sifatida ta'riflaydi:

Ulki ogahlarning ogahidur,
Fahm-u donish sipehrining mahidur.
So'zi ortiqdurur guhardin ham,
Fazl-u donishda olam ichra alam (TSh, 27).

Masnaviyini so'zining qadrsizligidan shikoyat tarzida xalqona ruhda achchiq kinoya bilan yakunlaydi.

So'zuma hech kishi jugan bermas,
Bersalar ham samon – yamon ermas (TSh, 27).

Komil ijodkor mehnatiga, so'zga bepisand kishilarga haqiqatni baralla ayta oldi. Ilm-u ma'rifat yo'lida haq so'zni aytgani sababli hayot ziddiyatlari bilan to'qnashdi, azob-u kulfatlarga chidadi.

Komil o'zbek adabiyotini kompozitsion jihatdan mukammal masnaviylar bilan boyitdi. "Lirik asarlarga sarlavha qo'ymaslik kengroq ommalashgan bo'lib, bu ma'lum darajada an'ana bilan ham izohlanadi: mumtoz she'riyatimizda, qit'alar istisno qilinsa, she'rlar nomlangan emas¹". Masnaviylar ham birinchi misra yoki uning dastlabki jumlasini bilan nomlangan. Shoir voqelikni ma'lum bir obrazlar vositasida aks ettiradi. Yaqubxoja, Muhammadniyoz devonbegi, shuningdek, ma'shuqa, shoh kabi bir qancha obrazlar bilan bog'liq voqeliklar talqini ham buni tasdiqlaydi. Komil masnaviylarining o'ziga xosligi debochalar "ey" xitobi orqali "Ey karam bahrining durri g'altoni", "Ey gulshani saltanat niholi", "Ey shahanshohlar shahanshohi" kabi undalmalar bilan murojaat tarzida boshlanadi. Bunday undalmalar turli obrazlarni – ba'zan mahbubani, ba'zan shohni ifodalaydi. Jumladan, "Ey karam bahrining durri g'altoni", "Ey gulshani saltanat niholi", "Ey shahanshohlar shahanshohi" kabi sifatlashlar mohiyatan Allohga tegishlidir. Lirik

¹ Quronov D. Adabiyotshunoslik nazariyasi asoslari. – Toshkent: "Noshir", 2019. – B.154.

asarlarda ham muayyan syujet aks etadi. “Lirik asarda ham o‘y-fikrlar, his-kechinmalar rivoji borki, ular ham epik va dramatik asarlarda kuzatiladigan syujetdagi kabi o‘zaro bir-biriga bog‘liq holda kechadi. Faqat buni syujet bilan emas, lirik asar kompozitsiyasi bilan bog‘lab tushuntirish maqsadga muvofiq bo‘ladi, deb bilamiz. Negaki, lirik asarda kompozitsiya syujet o‘rnini bosib, o‘y-kechinmalarni muayyan tartibda uyushtiradi. Ya’ni agar epik va dramatik asarlar kompozitsiyasining o‘zagini syujet tashkil qilsa, lirik asarda bu funktsiya ham to‘lasicha kompozitsiya zimmasiga tushadi”². Shuning uchun olim “lirik syujet” atamasi o‘rniga “tematik kompozitsiya” atamasini qo‘llaydi. Ma’lumki, tematik kompozitsiyada boshlanma, o‘y-fikr va his-kechinmalar rivoji hamda yakun mavjud. Komil Xorazmiy yaratgan masnaviylar ham ana shunday kompozitsion tuzilishga ega.

Umuman, shoir masnaviylarida oshiq va ma’shuqa kechinmalari jonli, hayotiy tafsil va badiiy lavhalar orqali tasvirlangan. Bundan Haq ishqij majoz vositasida ifodalangani Komil masnaviylarining irfoniy ahamiyatiga dalil bo‘la oladi.

Bobning ikkinchi faslida **“Mustazod va kichik janrlar poetik xususiyatlari”** tahlilga tortilgan. Komil lirik merosida bitta mustazod mavjud bo‘lib, u to‘qqiz baytdan tarkib topgan. Shahobiddin Nuriddinov ba’zi qo‘lyozmalarda uning sakkiz baytdan iborat ekanini, mustazodning quyidagi beshinchi bayti tushirib qoldirilganini ta’kidlaydi:

Nargisdin etib barcha xiyobonda sarosar,
yo‘ling uza har shom.
Yetkurdi chaman qushlari gardun uza g‘ul-g‘ul,
anvoi charog‘on¹⁵.

Mustazod ishqiy mavzuda bo‘lib, shoir bu lirik janr mezonlarini saqlagan. She’rda qo‘llangan *sarv, lola, sunbul, nargis* kabi gul va daraxtlar, *bulbul, qumri* kabi qushlar obrazi tasviri shoir tasvirlamoqchi bo‘lgan fikr va tuyg‘ularga badiiy bo‘yoqdorlik berish bilan birga, go‘zal tabiat manzarasining o‘zgacha bir qiyofasini jonlantira olgan. Mustazodning dastlabki baytidayoq Komilning bu janrdagi mahorati, ma’noni kuchaytirib, ta’kidlab ifodalashdagi o‘ziga xos uslubi yaqqol namoyon bo‘ladi:

Ruxsorai gulnoringadur gulshan aro gul,
bir oshiqi hayron.
Ul oshiqi hayroningdur shiftai bulbul,
tun-kun ishi hayron (28).

Tasvirdagi badiiy mantiq, tanosub (gulshan – gul – bulbul), tazod (tun - kun) san’atlari va sifatlovchi-sifatlanmish (ruxsorai gulnor, oshiqi hayron) munosabatlari bayt badiiyatini kuchaytirgan. Yor ruxsori shu qadar go‘zalki, hatto gulshandagi gullar ham unga oshiqi hayron. Gulning oshig‘i bo‘lgan oshufta bulbul bundan tun-kun hayronlik ichida qolgan. Bayt yaxlit tarzda husni ta’lil san’ati mahorat bilan qo‘llangani jihatidan ham qimmatlidir.

Shoir xalqona iboralarni qo‘llab, ma’shuqaning xushbichim qaddini san’at darajasida tasvirlaydi:

Mavzun qadinga bir oyoq ustida turib sarv,

² Quronov D. Adabiyotshunoslik nazariyasi asoslari. – Toshkent: “Noshir”, 2019. – B.116.

¹⁵ Nuriddinov Sh. Komil Xorazmiy devoni manbalari genealogiyasi va matn tanqidi muammosi. Filol. fanlari doktori... diss. - Qarshi, 2022. – B.80.

po dar gili hayrat,
Qumrilar onga bo‘ldi solib gardanig‘a g‘ul,
bir bandai farmon (KD, 69).

Lirik qahramon ma‘shuqaning jamolini ko‘rgan sarv bir oyoqda turib, boshdan-oyoq hayratga cho‘mgan. Gardaniga g‘ul – zanjir halqa solgan qumrilar bamisoli farmon kutgan bandaga mengzaydi. Yor husini tomosha qilgan lola, mushkin sochiga hayratda qolgan sunbuldan ham ko‘ra yor husnini ko‘rganda ular tushgan holat e‘tiborni tortadi. Ya‘ni lolaning jigari dog‘ bo‘lgani, sunbul bog‘ ichra parishon, dilso‘xta (o‘rtangan)ligi. Bunday tasvirlash usuli keyingi baytda qushlar orqali ham berilgan. Shoir qushlarga xos taqlid so‘zlarni qo‘llash orqali turkiy tilning beqiyos ifoda imkoniyatlarini namoyon etadi.

To topdi julusing sharafin masnadi bo‘ston,
gul uzra chu shabnam.
Bulbul ishi alhoni surohiy so‘zi qul-qul,
ayyomi bahoron (KD, 69).

Bunday o‘ziga xos badiiy topilmalar misralarning jozibasini orttirgan, musiqiylikini ta‘minlashga xizmat qilgan.

Mustazod shoirning axloqiy-falsafiy qarashlari bilan yakun topadi. Ijodkor nazdida chinakam komillik, birinchidan, noqis-u siflalar qoshida mulozim bo‘lmaslik, ikkinchidan, izzat tilamoqning asosiy sharti bo‘lgan nafs g‘alvasidan qutulib, qanoatli bo‘lib, Yaratganga tavakkul qilmoq. Shoir noqis-u sifla bilan komil o‘rtasidagi ma‘no zidligi orqali mazmunning ta‘sirli bo‘lishiga erishadi. “Komil” so‘zini ham taxallus, ham lug‘aviy ma‘noda qo‘llab, baytning badiiy quvvatini oshiradi:

Har noqis-u sifla qoshida bo‘lma mulozim
aqling esa Komil,
Izzat tilasang qoni’ o‘l-u ayla tavakkul,
Ezidg‘a hama on (KD, 70).

Shoirning ustozlari Muhammad Rizo Ogahiy bir qit‘asida qanoat maqomiga erishgan kishi ma‘naviy huzur-halovatga erishishiga, qanoat go‘shasida xoksor bo‘lishni odat qilgan inson quyosh kabi izzat topishiga urg‘u beradi. Komil ham Ogahiy kabi insonlarni qalb va ruh osoyishtaligiga undaydi. Mustazod janrining betakror namunasi bo‘lgan she‘rida shoir tashbeh, tanosub, tazod, takrir, husni ta‘lil, istiora, tadrij kabi she‘riy san‘atlardan istifoda etadi. Mustazodda qo‘llanilgan bu kabi san‘atlar badiiy so‘zning fasohati va irfoniy mantiq quvvati uyg‘un bo‘lishini ta‘minlagan.

Komil Xorazmiy ruboiylari ushbu kichik janrning imkoniyatlari nechog‘liq katta ekanini ko‘rsatgani jihatidan ahamiyatlidir. Uning devonlari qo‘lyozmalariga 16 ta ruboiysi kiritilgan. Shahobiddin Nuriddinov fikricha: “1035/IV raqamli qo‘lyozmada avvalgi manbalarda uchramaydigan ikkita ruboiysi mavjud”¹⁶.

Shoir ruboiylari ushbu janrning yuksak namunalaridir. Ularda axloqiy-falsafiy va ishqiyy-tasavvufiy mazmun bilan birgalikda insoniylik, adolat, sabr, himmat, komillik kabi yuksak fazilatlar betakror ifodalangan.

¹⁶ Nuriddinov Sh. Komil Xorazmiy devoni manbalari genealogiyasi va matn tanqidi muammosi. Filol. fanlari doktori... diss. - Qarshi, 2022. – B. 80.

Axloqiy fazilatlar ichida sabr va uning xususiyatlari haqida bahs yuritilgan ruboiylar talaygina. Bir ruboiysida shoir insonning yaxshi va yomon hollari barchasi Allohdan ekanini talqin etadi:

Har necha balo yetsa chekib boshni bukma,
Ta'jil yaqosig'a boshingni suqma,
Amroz-u, alam shiddatidin hovliqma,
Topg'ung yana, Komilo, shifo oshuqma (TSh, 30).

Shoir fikricha, har qancha balo kelsa, bosh egmaslik, shoshma-shosharlik yoqasida bosh suqmaslik zarur. U insonga amroz-u alam, ya'ni betoblik va iztirob shiddatidan hovliqmaslikni tavsiya etib, banda sabr qilsa, shifo topishi muqarrar ekani haqida yozadi. Har to'rt qatori qofiyalangan ruboiyi tarona boshdan-oxir nasihat ruhida bitilgani uchun kalomi jomi' san'ati asosiga qurilgan. Bundan tashqari, ruboiy badiiyatida istiora (ta'jil yaqosi) san'atining ham o'rni alohida.

Komil ushbu janrning har ikki turi – tarona va xos ruboiy birday uchraydi. Shoir ruboiylarida ishq mavzusi ham yangicha obrazlar orqali tasvirlanadi. Uningcha, oshiq yor eshigida bamisoli qul. Buning ustiga, xojasining ishlarini munosib darajada ado eta olmayotganidan sharmandali holatda. Biroq jon javhari tan sadafida ekan, ma'shuqaning eshigi gardini boshiga toj aylamoq istaydi:

Bu qulki eshigida kamin bandadurur,
Shoyista ish etmay ango sharmandadurur,
Xoki darini boshimg'a afsar ayla,
Jon javhari tokim sadafi tandadurur (KD, 217).

Ruboiy badiiyatini ta'minlashda sifatlash (kamin banda), istiora (jon javhari, sadafi tan), irsoli masal (Xoki darini boshimg'a afsar ayla) kabi san'atlardan mohirona foydalanilgan. Bu esa ruboiyda teran irfoniy-ishqiy mazmun va badiiyat uyg'unligini ta'minlagan.

Komil o'z ruboiylari orqali, bu janrning shakl va mazmun jihatdan boyishiga munosib hissa qo'shdi. Ular orasida biografik xarakterga ega quyidagi ruboiy ham bor. Unda shoirning hasrati, xonga qilgan arzi ta'sirli ifodalangan:

Har xizmat aro yo'q erdi mendek bir amin,
Har so'zum edi sengo chu burhoni mubin,
Topding mendin ne fe'li noshoyista,
Yolg'on kibidur har necha so'z desam chin (KD, 217).

Shoir ruboiylarining aksariyati muraddaf ekani bilan alohida ajralib turadi. Shoir ruboiyotida radifning ishlatilishi muhim bir jihati bilan xarakterlanadi: u bitta radifni uchta ruboiyda qo'llab, o'ziga xos talqinlarga erishgan. "Yo Rab" radifli uchta ruboiysi ushbu fikrni tasdiqlaydi:

Oyirma boshim bu ostondin, yo Rab,
To borg'ucha ushbu xokdondin, yo Rab,
O'zga kishi minnatin manga chekdurma
Shahzodadin-u shahri jahondin, yo Rab (ShN).

Shoir ijodida shunday ruboiylar borki, ular mantiqan o'zaro bog'lanadi. "Yo Rab", "Jadingg'a jadim vazir ekanda a'zam", "Jadingg'a manga mahram ekanda abu jadd" deb boshlanuvchi ruboiylari shular jumlasidandir. Yaxlit badiiy lavhani bir qancha ruboiylarda yagona g'oyaviy maqsad talablariga mos ravishda shaklga tizish shoirdan yuksak mahorat talab qiladi.

Umuman, Komil Xorazmiy ruboiylari orqali bu lirik janrning mazmunan va shaklan boyishiga munosib hissa qo‘shdi. Ruboiynavislik an‘analarini davom ettirish barobarida badiiy-estetik jihatdan yanada rivojlantirdi. Ushbu kichik janrning ifoda imkoniyatlari katta ekanini isbotladi.

XULOSA

Komil Xorazmiy ijodidagi janrlar poetikasi yuzasidan olib borilgan tadqiqot natijalaridan quyidagi ilmiy-nazariy umumlashmalarni chiqarish mumkin:

1. Komil Xorazmiy shoir, tarjimon va musiqashunos sifatida boy adabiy-ilmiy meros qoldirgan. Shoir she‘riyatning Shayx Ahmad Taroziy “Funun ul-balog‘a”da ajratib ko‘rsatgan o‘n she‘riy janrdan yettitasi – qasida, g‘azal, ruboiy, masnaviy, musammat, mustazod va mutavvalda badiiy jihatdan mukammal asarlar yaratdi. Musammatning murabba‘, muxammas, musaddas, musabba‘ va musamman kabi besh shaklidagi she‘rlari Sharq mumtoz poetikasi talablariga to‘liq javob berishi jihatidan ahamiyatlidir. Shoir muammo va ta‘rix bilan birga lirikaning jami o‘n uch janrida ijod qilgani, she‘rlarida ishqiy-irfoniy va ijtimoiy-ma‘rifiy mazmun hamda badiiy shakl yuksak darajada sintez qilingani shoir nazmiy merosining adabiy-estetik qimmatini baland ekanidan dalolat beradi.

2. Hozirgacha ma‘lum 206 ta g‘azali Komilning ushbu janrni shaklan va mazmunan yangilagani isbotidir. Shoir Navoiy, Fuzuliy, Munis va Ogahiy singari salafarlari va zamondoshlarining g‘azalchilik an‘analarini munosib davom ettirib, ularning g‘azallariga tatabbular bitibgina qolmay, ushbu janrga yangi ruh olib kirdi. G‘azalni matla‘dan maqta‘gacha kitobat, takrir va boshqa san‘atlar asosiga qurish borasidagi Xorazm adabiy muhitigagina xos usulni yangi takomil darajasiga olib chiqdi. ““Ayn”-u “shin”-u “qof”inga to‘bo‘ldi ko‘nglum muftalo”, “Mango qilma, ey mohi olijanob, Itob-u itob-u itob-u itob” misralari bilan boshlanuvchi g‘azallari buning isbotidir.

3. Komil mumtoz adabiyotimizda kamdan-kam ijodkor qalam urgan janr – bahri tavil ham yozgan. Ba‘zi nazariy adabiyotlarda “mutatavval” nomi bilan ham yuritiladigan bu janr sajli nasrga yaqin turishi, o‘n juzvdan yuz juzvgacha hajmda bo‘lishi bilan xarakterlanadi. Turkiy bahri tavilning ilk namunalari Shayx Ahmad Taroziy, Hiloliy va Navoiyga mansubdir. Xorazm adabiy muhitida bu janr Ogahiy, Komil Xorazmiy va Tabibiy ijodida uchraydi. Bahri tavil, odatda, g‘azal shaklida keladi. Komil she‘ri muxammas shaklida ekani bilan ushbu janrni yangilagan. Shoir bahri tavili besh misra, yetmish besh juzvdan iborat bo‘lib, ushbu janr talablariga nainki mos keladi, hatto uning betakror va yuksak namunasidir.

4. Ijodkor she‘riyati mavzu jihatdan rang-barang. Ularni quyidagicha guruhlashtirish mumkin: ishqiy, ijtimoiy va ma‘rifiy. Komil lirikasida ishqiy mavzu yetakchilik qiladi. Ikkinchi o‘rinni ijtimoiy she‘rlar tashkil etib, muhit va davr xususiyatlari ta‘sirli ifodalanadi. Jamiyatdagi adolatsizlik va zulm-u sitamni qoralashga qaratilgan bu ruhdagi she‘rlar, birinchidan, ushbu mavzuning maxsus talqiniga hamda ayrim baytlarda ijtimoiy mazmun ifodalanishiga asoslanadi. Uchinchi o‘rinni yangicha ma‘rifatparvarlik yo‘nalishidagi she‘rlar tashkil etadi.

5. Komil qasidanavislikda ham o‘ziga xos o‘ringa ega. Ushbu janrga oid jami 6 ta she‘ri bo‘lib, ulardan 4 tasi Muhammad Rahimxon soniy madhida bitilgan.

Beshinchisi “Dar bayoni ta’rifi va tavsifi Toshkand” mutaxassislar tomonidan “Qasidayi Navro‘z” bir asar deb kelingan edi. Shahobiddin Nuriddinov ular boshqa-boshqa qasidalar ekanini aniqladi. Mazkur olti qasida janrning kanonik belgilariga muvofiq bo‘libgina qolmay, uning mavzu doirasini kengaytirgani, shaklga yangiliklar kiritgani bilan alohida ajralib turadi.

6. Musammat Komil badiiy-estetik tafakkuri takomilida muhim mavqe tutadigan janrlardan. Shoir ushbu janrning murabba’, muxammas, musaddas, musabba’ va musamman shakllarida yuksak badiiyat durdonalarini yaratdi. Ijodkor adabiy merosida murabba’lar nisbatan kam bo‘lsa ham, teran irfoniy mazmuni, xalqchilligi va yuksak badiiyati bilan qimmatlidir. Komilning tab’i xud muxammaslari ham, Navoiy, Bedil, Munis, Nishotiy, Ogahiy, Feruz, Rojiy, Xoja, Amiriy va G‘oziy g‘azallariga bog‘lagan taxmislari ham bu janrga oid an’analarga yangi mazmun, yangi ruh olib kirgani bilan qimmatlidir. Musaddas, musabba’ va musammanlari teran irfoniy mazmun va go‘zal badiiyat sintezlashgani jihatidan o‘ziga xosdir.

7. Shoirning barcha 8 ta masnaviysi kompozitsiyasi mukammalligi bilan xarakterlanib, ulardan eng kichik hajmdagisi 13 baytdan, eng yirigi 168 baytdan tarkib topgan. Uning bu janrdagi she’rlari asosiy matndan avval asar yaratilishi tarixiga doir izoh-sarlavha berilishi, debocha “ey” xitobi orqali “Ey karam bahrining durri g‘altoni”, “Ey gulshani saltanat niholi”, “Ey shahanshohlar shahanshohi” tarzida boshlanishiga ko‘ra alohida ajralib turadi. Bunday undalmalar mahbuba, shoh va boshqa obrazlarni ifodalaydi.

8. Komil ijodida mustazod janriga mansub 1 ta she’r bo‘lib, uning hajmi to‘qqiz baytdan iborat. Irfoniy ishq mavzusidagi ushbu mustazod janr kanonlariga to‘liq mos keladi. Mustazodda gul va daraxtlar (*sarv, lola, sunbul, nargiz*) hamda qushlar (*bulbul, qumri*) obrazi shoir ijodiy niyatining peyzaj vositasida ifodalangani hamda axloqiy-falsafiy umumlashma bilan yakunlanganiga ko‘ra xarakterlidir. She’rning so‘nggi baytida “Komil” so‘zi bir vaqtning o‘zida taxallus va lug‘aviy ma’noda qo‘llangani badiiyat yuqori bo‘lishini ta’minlagan.

9. Shoirning hozirgacha ma’lum 16 ta ruboiysi kichik nazmiy janrning katta imkoniyatini ko‘rsatgani bilan o‘ziga xosdir. Ijodkor ruboiylarida ishq va axloqdan falsafiy konsepsiya va ijtimoiy voqelikkacha, tasavvufiy mohiyatdan shoir estetik idealigacha aks etgan. Komil ushbu janrning har ikki turi – xos va taronai ruboiyning badiiy yuksak namunalarini ijod qildi. Ulardan aksari muraddaf, ya’ni radifli ruboiylardir. Shoirning “Yo Rab” radifli uch ruboiysi radifining bir xilligi bilangina emas, vazn, qofiya, shakl va mazmun jihatdan mukammalligi bilan ham o‘ziga xosdir.

Yaxlit umumlashma sifatida aytish mumkinki, Komil Xorazmiy Sharq mumtoz she’riyatining 13 janrida ijod qilib, millatimiz adabiy-estetik tafakkur takomiliga munosib hissa qo‘shdi. An’ana negizida yangilik yaratib, lirik janrlarni shakl va mazmun jihatdan boyitdi va rivojlantirdi. Xorazm adabiy muhitiga xos yangiliklarni milliy adabiyotimizga olib kirdi. Shoir asarlari bugun ham milliy adabiyotimiz yuksalishiga xizmat qilmoqda.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ РНД.03/30.12.2019.FIL.55.02
ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ
УРГЕНЧСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ УНИВЕРСИТЕТЕ ИМЕНИ
АБУ РАЙХАНА БЕРУНИ**

**УРГЕНЧСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ АБУ РАЙХАНА БЕРУНИ**

ХУДАЯРОВА ДИЛНОЗА ШАВКАТОВНА

ПОЭТИКА ЖАНРОВ ПОЭЗИИ КАМИЛА ХОРЕЗМИ

10.00.02 – Узбекская литература

**АВТОРЕФЕРАТ
ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (РНД) ПО ФИЛОЛОГИЧЕСКИМ
НАУКАМ**

Ургенч – 2025

Тема диссертации доктора философии (PhD) по филологическим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за B2024.2.PhD/Fil4815.

Диссертация выполнена в Ургенчском государственном университете имени Абу Райхана Беруни.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещён на веб-странице Научного совета (fil-ik.urdu.uz) и на информационно-образовательном портале «ZiyoNet» www.ziynet.uz..

Научный руководитель:

Жабборов Нурбой Абдулхакимович
доктор филологических наук, профессор

Официальные оппоненты:

Болтаева Гулчехра Шокировна
доктор филологических наук, профессор,

Санджоновна Зебо Комиловна
доктор философии (PhD) по филол. наукам,
доцент

Ведущая организация:

Каршинский государственный университет


Защита диссертации состоится «30» декабрь 2025 г. в 11.00 часов на заседании Научного совета PhD.03/30.12.2019.Fil.55.02 по присуждению ученых степеней при Ургенчском государственном университете имени Абу Райхана Беруни (Адрес: 220100, Ургенч, ул. Хамида Алимджана, дом №14). Тел: (99862) 224-67-00; факс: (99862) 224-67-00; e-mail: fil-ik.urdu.uz.


С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Ургенчского государственного университета (зарегистрирована за № 2-99) (Адрес: 220100, Ургенч, ул. Хамида Алимджана, дом №14. Тел: (99862) 224-67-00).

Автореферат диссертации разослан «16» декабрь, 2025 года.
(реестр протокола рассылки № 68 от «16» декабрь 2025 года.)




О.О. Чупанов
заместитель председателя научного совета по присуждению ученых степеней, доктор филологических наук (DSc), доцент


С.С. Атаджанов
учёный секретарь научного совета по присуждению ученых степеней, доктор философии (PhD) по филол. наукам, доцент


А.Д. Уразбаев
председатель научного семинара при научном совете по присуждению, доктор филологических наук (DSc), профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В мировом литературоведении вопросы канонических особенностей, постепенного совершенствования и трансформации поэтических жанров находятся в центре внимания специалистов. Потому что лирика, как род, и ее жанры независимо от национальной принадлежности, имеют особое значение в литературе всех народов с точки зрения выражения духа творческой личности и нации. Поэтические жанры и формы, кроме того, характеризуются тем, что воплощают в себе особенности развития художественного мышления определенного народа, относящиеся к разным периодам.

Мировая литература служит источником для литературоведческих исследований не только как отражение духовного и философского мира творца, но и как художественное осмысление прошлого человечества, его взлётов и падений, в различных эпических и лирических жанрах. Классические и современные поэтические жанры в восточной и западной литературе отличаются друг от друга по своей поэтике и специфике. Однако отражая духовные переживания и взаимоотношения человека с миром, они также имеют определённые общие черты. Это, в свою очередь, доказывает, что поэтический жанр, форма и стиль выполняют важнейшую литературно-эстетическую функцию.

Узбекская литература занимает особое место в мировой эстетической мысли благодаря своим уникальным литературным средам, сложившимся в таких центрах, как Хорезм, Коканд, Ташкент, Бухара и Самарканд, каждая из которых отличается самобытными чертами и уникальными творческими открытиями в области поэзии. Тот факт, что «изучение узбекской классической и современной литературы на международном уровне, анализ ее в неразрывной связи с важнейшими процессами, происходящими сегодня в мировом литературном пространстве, составление необходимых научно-практических выводов, определение наших будущих задач имеет большое значение», ставит перед специалистами такие конкретные задачи, как выявление своеобразия этих литературных сред и проведение исследований, отвечающих современным требованиям, на примере творческого наследия отдельных авторов. Определение поэтических и жанровых особенностей поэзии Камила Хорезми, яркого представителя литературной среды Хорезма XIX века, поэта, переводчика, государственного деятеля и каллиграфа, обоснование его места в развитии художественного мышления нации является одной из важных задач, стоящих перед литературоведением. Художественные открытия поэта в совершенствовании поэтических жанров, обогащение формы и содержания газели, касыды, мусаммата, мустазада, месневи и малых поэтических жанров, а также необходимость оценки его вклада в развитие национального эстетического мышления на основе критериев классической поэтики подтверждает актуальность научной проблемы, поставленной в данной диссертации.

Данное диссертационное исследование в определенной степени служит для реализации задач, поставленных в Указах Президента Республики Узбекистан №УП-6097 «Об утверждении Концепции развития науки до 2030 года» от 29 октября 2020 г., в №УП-6108 «О мерах по развитию сфер образования и воспитания, и науки в новый период развития Узбекистана» от 6 ноября 2020 г., в Постановлениях №ПП-2909 «О мерах по дальнейшему развитию системы высшего образования» от 20 апреля 2017 г., в №ПП-2995 «О мерах по дальнейшему совершенствованию системы хранения, исследования и пропаганды древних письменных источников» от 24 мая 2017 г., в №ПП-4865 «О широком праздновании 580-летия со дня рождения великого поэта и мыслителя Алишера Навои» от 19 октября 2020 г., в №ПП-20 «О широком праздновании 540-летия великого поэта и ученого, выдающегося государственного деятеля Захириддина Мухаммада Бабура», в Распоряжении РКМ №124-Ф «О проведении международной конференции на тему «Актуальные вопросы изучения и пропаганды узбекской классической и современной литературы на международном уровне»» от 16 февраля 2018 года и других нормативно-правовых актах в этой сфере.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики. Исследование выполнено в рамках приоритетного I направления развития науки и технологий «Формирование информированного общества и системы инновационных идей социального, правового, экономического, культурного, духовно-просветительского развития демократического государства и путей их реализации».

Степень изученности проблемы. С 1873 года, когда Хивинское ханство стало вассалом Российской империи, в исследованиях русских ученых наблюдается упоминание Камила. В русском официальном источнике под названием «Хивинский поход 1873 года», изданном в Санкт-Петербурге, есть сведения о нем в книге Ф.И.Лобосевича «Описание Хивинского похода 1873 г.». В книге Мак-Гахана «Военные действия на Оксусе и падение Хивы», переведенной с английского языка и изданной в Москве в 1875 году, особое внимание уделяется деятельности Камила. Заметки о нем редактора «Туркистон вилоятининг газети» Н. Остроумова были написаны в 80-90-х годах XIX века.

В произведениях, созданных в XIX веке, таких как «Гульшани давлат» Агахи, «Шажарай Хоразмшохий» Мухаммада Юсуфа Баёни, «Маджмуату-ш-шуаро» Ахмада Табиби, деятельность Камила как пламенного поэта и предприимчивого государственного деятеля была оценена высоко.

В советское время поэтическое наследие Камила было впервые представлено в 1945 году в хрестоматии О.Шарафиддинова «История узбекской литературы», а два года спустя - в «Антологии узбекской поэзии». С 50-х годов жизнь и творчество Камила включены в программы и учебники школ и высших учебных заведений. В частности, в учебниках Г.Каримова для высших и средних специальных учебных заведений особое место отводится жизни и творчеству Камила. Специальное исследование под названием «Мухаммаднiaz Комил» в последнем 5-м томе пятитомника «История

